



SHERON

TARIXIY
MEROS HUDUDI

I FALSIFA

II MEROS

III MADANIYATLAR MULOQOTI

IV VILLALAR

V BOG'DOORCHILLIK SAN'ATI

VI SHERON BOG'I

VII GUZAR

VIII SHAXSIY HUUDUD



FA

LS

A

FA


*Zaruriyat tufayli vujudga
kelgan maskanlar bor,
ammo ma'no va
mohiyatdan yaralganlari
alohida e'tirofga loyiq.*

Sheron Residence
zamidida
asrab-avaylash
va bunyodkorlik
g'oyasi mujassam.

Bu — madaniy
merosimizning mantiqiy
davomiyligiga aylangan
me'moriy manifestdir.



*Asrlar davomida
diyorimiz
mintaqaning
madaniyati,
ma'naviyati va
islomiy merosi
gullab-yashnagan
«jahon chorrahasi»
bo'lib kelgan.
Bu yerda bilim,
savdo va
hunarmandchilik
markazlariga
aylangan shaharlar
bunyod etilgan.
Biz ushbu merosga
tarix chizmasi
sifatida emas, balki
hayotiy tamoyillar:
davomiylik,
uyg'unlik va
boqiylikning jonli
sarchashmasi sifatida
murojaat qildik.*





SHERON RESIDENCE – KUNDALIK HAYOTNING YANGI MADANIYATI

*Bu yerda uy shaxsni shakllantiruvchi muhitga aylanadi.
Zero, faqat teran madaniy poydevorga ega bo'lgan
qadriyatlargina haqiqatda bardavom bo'la oladi.*






Sheron Residence'da zamonaviy dunyo qulayligi o'tmishga ehtirom va kelajak oldidagi mas'uliyat bilan uyg'unlashib, oilangiz merosiga asos soladigan maskanni bunyod etadi.





“SHERON RESIDENCE”
LOYIHASI NOMINI YARATISHDA
AMIR TEMUR BUNYOD
ETGAN BOG‘LARDAN BIRI –
“BOG‘I SHERON”
(SHERLAR BOG‘I)DAN
ILHOMLANILGAN.

O'sha davr falsafiga ko'ra, sher - uyning qo'riqchisi va ichki tayanch timsoli sifatida qadrlangan. Sheron Residence'da bu meros zamonaviy ko'rinish kasb etadi: bu yerda sher nafaqat uyning chegaralarini, balki rezidentlar uchun butun ekotizimni qo'riqlaydi.





MULO

O

Sheron Residence'ning g'oyaviy negizida
ikki madaniyat – O'zbekiston va Italiya
an'analari mujassamlashgan.

Bu muloqot zamirida tarixiy
intilishlarning hamohangligi yotadi:
Temuriylar merosi bog'dorchilik san'atini
davlat estetikasining oliy shakliga
aylantirganidek, Florensiya Renessansi
ham villalarni inson va tabiat uyg'unligi
timsoliga aylantirgan.

QO'T





Ushbu davomiylikni
bog‘lab turuvchi
bo‘g‘in — ikki timsolning
o‘zaro muloqotidir:
asrlar davomida
xonadonning mustahkam
himoyachisi bo‘lib kelgan
Sharq me‘morchiligi
an‘analaridagi sher
va Italiyaning tartib
hamda g‘ururini
qo‘riqlagan Florensiya
«Martsokko» sheri.





VILL

AI


Villalar tarixi Qadimgi Rimdan boshlanib, o'sha davrlarda aslzodalarning shahar shovqinidan yiroqda, xilvatda hordiq chiqarish an'analarining me'moriy ifodasi sifatida namoyon bo'ladi.

AR

Bu turdagi uylar asrlar davomida uy egasining yuksak mavqei va tabiat bilan uyg'unlikda yashash istagining ramzi bo'lib kelgan.



Sheron Residence
majmuasidagi
villalar italyan
me'morchiligi
an'analarida bunyod
etilgan: rustika
uslubidagi salobatli
poydevor Florensiya
saroylarini yodga
solasa, nafis yuqori
qavatlar terrakota,
limon va oq qum
ranglarining iliq
jilosida bezatilgan.





VILLALAR HUDUDI
TASHQI MUHIT BILAN
UYG‘UNLASHIB, UZVIY
DAVOMIYLIKNI AKS ETTIRADI.

Kirish darvozasi oldida yashil hovli hamda hovuz va yozgi oshxonani o‘z ichiga olgan orqa ayvon dam olish uchun yopiq hudud yaratadi.





MUKAMMALLIKNIG UCH ASOSI

*S*heron Residence me'moriy konsepsiyasi uch xil - 6, 9 va 12 sotixli maydonlarni egallagan. Yer maydoni turlicha bo'lishiga qaramay, har bir villaning rezidensiya hududidagi uyg'unligi va mutlaq mustaqilligi o'zgarishsiz qoladi.









SHINAMLIK MUVOZANATI

Villalar funksional vertikal tamoyil asosida loyihalashtirilgan. Pastki yerosti qavat shaxsiy hordiq va sog'lomlashtiruvchi hudud sifatida rejalashtirilgan bo'lib, bu yer hammom, mashg'ulot xonasi va uy kinozalini o'zida jamlaydi. Birinchi va ikkinchi qavatlar esa katta oilaning barcha ehtiyojlari - muhtasham mehmonxonalar va ishchi xonalardan tortib, alohida kirish yo'lagiga ega shinam yotoqxonalarini ham qamrab oladi.













ATROF-MUHIT UYG'UNLIGI

*B*aland shiftlar va keng panoramali derazalar ichki dizayn hamda bog' manzarasi o'rtasidagi chegaralarni yo'q qilib, xonadoningizni tabiatning uzliksiz davomiyligiga aylantiradi. Keng xonalarning ergonomikasi nafaqat kundalik qulaylikni ta'minlaydi, balki hayot sifatini mutlaqo yangi bosqichga olib chiqadi.









MAN ANNI YATI

*Temuriylar davri XV
asrda Samarqandga
tashrif buyurgan ispan
elchisi Ruy Gonsales
de Klavixo madh
etgan "bog'-shahar"
timsolini taqdim etdi.*


BOG' ANSAMBLARINING
G'AYRITABIY TASVIRLARI
YEVROPA MA'RIFAT DAVRI
UCHUN SHARQ MANZARASI
ME'MORCHILIGINING
HAYRATLANARLI
KO'LAMINI OCHIB BERDI.

Ruy Gonsalesning bitiklari natijasida G'arb olami qat'iy geometriya va tirik tabiat uyg'unligida yaratilgan, yuksak tartib namunasi bo'lgan mukammal bog' tizimini kashf etdi.






*S*heron Residence'da biz ushbu buyuk an'anani qayta tiriltirib, uni zamonaviy «erkin bog'» falsafasiga moslashtiramiz. Bizning iqlim sharoitimizda soya va suv — shunchaki bezak unsurlari emas, balki shinamlikning asosiy me'morlaridir. Biz shunchaki ko'kalamzorlashtirishni emas, balki mushohada uchun butun boshli ekotizimni yaratmoqdamiz. Bu yerda suvning mayin shuvillashi va barglarning shitirlashi tabiiy muolaga aylanib, shahar shovqinida yo'qolgan ichki xotirjamlikni tiklashga yordam beradi.






BR G'

*R*ezidensiya
markazida besh
gektar jonli
tabiat maydoni.



ELEMENTLAR RAMZI

*S*heron Residence landshaftida tasodifiy detallarga o‘rin
yo‘q – har bir element his-tuyg‘u va ma‘nolarga
murojaat qiladi.



SUV ELEMENTLARI


*S*heron Residence'dagi favvoralar hayotning uzluksiz harakati va yangilanishi ramzi bo'lib xizmat qiladi. Ular har bir villa va markaziy bog'ning landshaftiga uyg'unlashib, yagona iqlim va estetik ko'rinish hosil qiladi.





SOYALAR ARXITEKTURASI

*S*heron Residence turar-joy majmuasidagi ayvonlar va bog' shiyponlari yilning har faslida hordiq chiqarishga mo'ljallab loyihalashtirilgan. Ular quyosh nuri va yog'ingarchilikdan ishonchli himoya qilib, majmua aholisiga kunning istalgan vaqtida toza havoda maroqli dam olish imkonini beradi.





BOG'LAR MEROSI

Bog'dagi daraxtlar avlodlar o'rtasidagi rishtaning jonli timsolidir. Ularning bahorda gullashi va kuzgi hosili vaqtning uzluksiz davriyligini hamda oilaviy an'analarning barqarorligini yodga soladi.







TAFAKKUR MAYDONI



Bolalar o'yin maydonchalari ekologik materiallardan yaratilgan va tabiiy relyefga moslashtirilgan bo'lib, bolaning tasavvuri va faol rivojlanishini rag'batlantiradi. Bog' hududidagi maxsus ona va bola xonalarining mavjudligi esa o'zingizga qulay bo'lgan vaqt davomida toza havodan bahramand bo'lish imkonini beradi.


SPORT MADANIYATI

*S*heron Residence'dagi sport maskanlari – bu park landshafti bilan uyg'unlashgan yopiq klub muhitidir. Biz majmuada istiqomat qiluvchilar hayot tarzini belgilovchi sport turlarini tanladik.









GOLF

*Maxsus golf maydoni turar-joy
majmuasi hududini tark
etmasdan o'yin texnikasini
mukammallashtirish
imkoniyatini yaratadi.*







TENNIS KORTI

Loyiha professional tennis kortini o'z ichiga oladi. Bu ertalabki o'yinlar uchun ideal maskan bo'lib, infratuzilma sifati eng nufuzli sport klublari darajasiga to'liq javob beradi.








SPORT ARENASI

*Futbol, voleybol yoki basketbol
o'ynash uchun oson moslashadigan
professional qoplamali
universal maydon.*







G U Z A R

Guzar - an'anaviy jamoa markazining zamonaviy ko'rinishidir. Biz bir manzilda banket zali, choyxona, ofis uchun open-space va ochiq terrasalarni birlashtirdik.



*B*inoning
peshtoqlari chuqur
bo‘rtma naqshlar
bilan bezatilgan.
Bu yorug‘lik va
soya jilvasi
Uyg‘onish davri
ustalari tomonidan
mukammallashtirilg
an bo‘rtma
me‘morchilik
san‘atini qayta
idrok etish
demakdir.



A man and a woman in white suits are standing in a modern, light-colored architectural space. The man is holding a briefcase. They are positioned near a large potted plant. In the background, there is a pool with a fountain and a building with a decorative ceiling. The overall atmosphere is bright and sophisticated.


Guzar — bu rezidentlar o'zlarini yagona jamiyatning bir qismi deb his qilishlari hamda o'zaro ahillik kundalik hayotning uzviy davomiyligiga aylanishi uchun yaratilgan makondir.





SHAXSIY HUDUD

*S*heron Residence hududiga kirish alohida ramziy inshoot orqali amalga oshiriladi. U majmuaning yopiq maqomi hamda loyiha ko'lamini o'zida mujassam etadi.







Bu yerda asosiy bezak unsuri — O‘rta Osiyo va Toshkent me‘morchiligining ramzi bo‘lgan geometrik naqsh — Girixdir. Binoning ichki qismida shisha bloklardan iborat panel joylashgan bo‘lib, u tabiiy yorug‘lik bilan uyg‘unlikda lobbi hududini nafis jilo bilan to‘ldiradi.

Bu yerda shahar an‘analari zamonaviy xizmat darajasi bilan uyg‘unlashib, har bir narsa sizning qulayligingizga xizmat qiladigan hududning boshlanish nuqtasini bildiradi.



EPİ

LO

G

«*Tarixiy Meros Hududi*» —
bu asrlar, madaniyatlar va
avlodlar o'rtasidagi muloqotdir

Bu yerda meros shunchaki
xotiralarda saqlanib qolmaydi,
balki yashashda davom etadi.

